



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**CONFERENCES.UZ**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2023**

**Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:**  
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil, Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tahrir kengashi:**

g.f.d., professor Hikmatov F.H.  
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.  
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

**Kengash a'zolari:**

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.  
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.  
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.  
PhD, dotsent Prenov Sh.M.  
PhD, dotsent Raxmonov D.N.  
PhD, dotsent Raxmonov K.R.  
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

**Mas'ul muharrir:**

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI SHAHAR AHOLISINING O‘SISH DINAMIKASI

**Xodjaeva Gulya Ashirbayevna**

g.f.n. dotsent

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

e-mail: x\_guli.68@mail.ru

**Dauletbaeva Dilbar Dastanovna**

doktorant

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

e-mail: dauletbaevadilbar@gmail.com

**Annotatsiya:** Qoraqalpog‘iston Respublikasining shaharlari va shahar aholisining o‘shish ko‘rsatkichlari tahlil qilingan. Mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonining hozirgi holati va rivojlanish yo‘llari haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** shahar, urbanizatsiya, aglomeratsiya, aholi punktlari, migratsiya, migratsiya saldosi, demografik vaziyat.

## THE POPULATION OF THE CITY OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN DYNAMICS OF GROWT

**Khodjaeva Gulya**

**Dauletbaeva Dilbar**

**Annotation:** The growth rates of the cities and urban population of the Republic of Karakalpakstan are analyzed. The ways of development of the urbanization process in our country are described.

**Key words:** city, urbanization, agglomeration, settlements, migration, migration balance, demographic situation.

**Kirish.** Hozirgi davrda yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida respublika urbanistik tarkibidagi o‘zgarishlarni tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Ta’kidlash joizki, respublika hukumati tomonidan urbanistik tizimni takomillashtirish bo‘yicha bir qancha islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan 2016-yil 5-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va shahar posyolkalari hududlarini rivojlantirish va qurish bo‘yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 8-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi



to'g'risida"gi qarorlari ishlab chiqildi [1]. Shu yili, ya'ni 2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid PF-30 sonli qaror qabul qilindi [2]. Bunda O'zbekiston Respublikasining urbanizatsiya darajasini yanada ko'tarish, hududlarni mutanosib rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni 1,4-1,6 baravarga oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish reyting ko'rsatkichlari "qoniqarsiz" bo'lgan shahar va tumanlar bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi qator masalalar shular jumlasidandir.

Demografik vaziyat murakkab sotsial, iqtisodiy, geografik va siyosiy jarayon bo'lib, u o'rganilayotgan hudud aholisining miqdoriy o'zgarishi, tabiiy va mexanik ko'payishi, joylashishi, aholining hududiy, milliy, ijtimoiy tarkibi kabi qator xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Shu boisdan bo'lsa kerak, har qanday shahar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilashda, avvalo, uning demografik vaziyatini tadqiq etish, aholi rivolanishining kelajakdagi holatini ko'rsatib berish maqsadga muvofiqdir.

Respublika hududining nisbatan kattaligi, iqtisodiy va tabiiy sharoitning xilma-xilligi sharoitida aholi joylanishidagi keskin farqlar, iqtisodiy, demografik va geografik xususiyatlarni tadqiq etishda dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Yangi ishlab chiqarishni, ayniqsa, bugungi kun talabiga mos keladigan xizmat ko'rsatish korxonalarini joylashtirish maqsadida tabiiy va ijiimoiy-iqtisodiy sharoiti qulay mintaqalarni ajratish avvalo mamlakatning ayrim hududlarida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi va xususiyatlarini aniqlashni taqozo etadi.

Umuman olganda, respublika aholisi ham son jihatdan ortib bormoqda. Tabiiyki, aholining ko'payib borishi birinchi navbatda tug'ilishga bog'liq. Shu jumladan, O'zbekistonda ham aholi soni asosan tabiiy o'sish hisobiga ko'paymoqda. O'tgan asrning boshlarida bir yilda tug'ilganlar soni 200,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 1970 yillarda u 2 marta, 1990 yillarda esa qariyb 3 martaga hozirgi kunda 4 barobarga oshdi [3. 106-108.]. Yangi iqtisodiy sharoitda Qoraqalpog'iston Respublikasi shaharlarida demografik jarayonlar o'ziga xos kechmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston hududining 37 foizini tashkil qilgan holda, mamlakat jami aholisining 5,5 foizini o'zida mujassamlantirgan (2021-y.). Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 1923,7 ming kishidan iborat bo'lib, 1990-yildagiga nisbatan 679,0 ming kishiga ko'paygan yoki 154,0 foizga o'sgan.

Ta'kidlash lozimki, Qoraqalpog'iston Respublikasi shaharlarining rivojlanishiga mos holda aholi soni ham o'sib bormoqda. Jumladan, 1990-yili shaharlarda 598,4 ming kishi istiqomat qilgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 942,0 ming kishiga teng bo'ldi yoki o'tgan 31 yil mobaynida shahar

aholisi 157,4 foizga o'sdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 12 ta shahar va 26 ta shaharcha mavjud (2021-y.).

Shahar aholisi 1979–2009-yillarda 338,0 mingdan 672,4 ming kishiga o'sgan. Uning o'rtacha yillik ko'payishi esa 3,30 foizga teng bo'lgan. Ushbu holat 1979–1989-yillarda 4,61%, 1989–1999-yillarda 2,20% va 1999–2010-yillarda esa u 1,16 foizni tashkil qilgan. Shaharlarda 1979–1989 va 1989–1999-yillar mobaynida aholi sonining o'sishi qishloq joylariga nisbatan yuqori bo'lgan. [4, 35-38.]. Faqatgina 1999–2017-yillarga kelib shaharlarda aholi sonining o'sishi biroz sustlashdi. Bu davrda ba'zi shaharlarda, masalan, Mo'ynoq, Taxiatosh va Xo'jayli shaharlari aholi soni kamaygan, Shumanay va Qo'ng'iro't shaharlarida esa uning soni deyarli o'zgarmagan.

1979–2017-yillar oralig'ida Chimboy, Bo'ston, Beruniy va Mang'it tumanlardan va qishloq joylaridan aholining muntazam ko'chib kelib turishi hamda shahar atrofida qishloqlarining shaharga qo'shib ketishi sabab bo'lgan. Boshqa shaharlarda aholining tez o'sishi tabiiy ko'payishning yuqoriligi va emigratsiya sonining kamligi ta'sir qilgan.

Aholi sonining o'sishi To'rtko'l, Xalqobod va Nukus shaharlarida o'rtacha darajada. To'rtko'l shahri aholisi tabiiy ko'payish hisobiga, Xalqobod va Nukus shaharlari esa aholisi kamaymaganligini va hatto ko'payotganligi bilan izohlash mumkin. Boshqa shaharlarda aholi sonining o'sishi past ekanligi kuzatilmoqda.

Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va demografik salohiyatida shaharchalarning ham o'rnini katta. Ular vujudga kelishi va joylashgan o'rniga qarab bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, ba'zi shaharchalar foydali qazilma konlari yaqinida ("resurs" shaharchalari), ayrimlari yirik shaharlar va muhim transport yo'llari atrofida, ba'zilari esa tuman markazlari sifatida shakllangan.

1979–2009-yillarda shaharchalarda aholi soni 62,4 mingdan 118,3 ming kishiga, ya'ni 189,6 foizga o'sgan. Ushbu holat 1979–1989-yillarda 139,4%, 1989–1999-yillarda 128,2% va 1999–2009-yillarda 106,1 foizga teng bo'ldi. Bundan ma'lumki, keyingi yillarda shaharchalarda aholining o'sish darajasi ancha kamayib bormoqda. 1993-yilda Oqsholoq va Qozonketgan shaharchalari, 2006-yili esa Elobod shaharchalari tashkil topdi.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish, toponimik obyektlarga nom berish va nomlarini o'zgartirish masalalarini hal etish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2005-yil 14-iyuldagi PQ-120-son qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.

Shu qarorga binoan mamlakatimizda 966, shundan Qoraqalpog‘istonda 11 ta yirik qishloqlarga shaharcha statusi berildi. Ular: Qipchoq – 3006, Qilichboy – 5179, Xitoy – 2639 kishi (Amudaryo tumani), Bulush – 5089 kishi (Beruniy tumani), Miskin – 2348, Turkmankuli – 3269, Tozabog‘ – 2613, Nurli yo‘l – 4990, Amirobod – 2743 kishi (To‘rtko‘l tumani), Naymanko‘l – 2211 kishi (Xo‘jayli tumani) va Ayteke – 2537 kishi (Chimboy tumani) shaharchalaridir. [5, 138-147].

Yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining o‘shish ko‘rsatkichlarini quyidagi jadvaldan ko‘rsak bo‘ladi.

### 1-jadval

#### Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining o‘shish dinamikasi

Yillar	Jami aholi ming kishi hisobida	Shu jumladan		Foiz hisobida	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi
1926	331,0	17,0	314,0	5,1	94,8
1939	475,7	57,8	417,9	12,1	87,8
1959	510,1	138,7	371,4	27,1	72,8
1979	904,3	372,7	531,6	41,2	58,7
1989	1213,8	583,7	630,1	48,1	51,9
1990	1244,7	598,4	646,3	48,1	51,9
1991	1273,8	614,4	659,4	48,2	51,8
1992	1310,7	634,7	676,0	48,4	51,6
1993	1342,8	654,4 I	688,4	48,7	51,3
1994	1371,6	667,7	703,9	48,6	51,6
1995	1396,7	677,9	718,8	48,5	51,5
1996	1418,2	686,3	731,9	48,3	51,7
1997	1439,1	695,7	743,4	48,3	51,7
1998	1459,1	701,8	757,3	48,0	52,0
1999	1478,8	713,9	764,9	48,2	51,8
2000	1503,0	724,2	778,8	48,1	51,9
2001	1527,0	738,4	778,6	48,3	51,7
2002	1540,1	753,7	786,4	48,9	51,1
2003	1551,6	760,1	791,5	48,9	51,1
2004	1560,3	760,6	799,7	48,7	51,3
2005	1569,9	764,9	805,0	48,7	51,3
2006	1571,9	763,9	808,0	48,5	51,5
2007	1582,7	767,5	815,2	48,4	51,6
2008	1595,4	774,3	820,9	48,5	51,5
2009	1615,7	814,6	801,1	50,4	49,6
2010	1632,0	820,3	811,7	50,2	49,8
2018	1842,4	905,6	936,8	49,2	50,8
2021	1923,7	942,0	981,7	48,9	51,0

*Jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi*

Umuman olganda, 1979–2009-yillar oralig‘ida aholi soni Qonliko‘lda 5,2 barobarga, Oqmang‘itda 2,8 va Qorao‘zakda 2,2 barobarga ko‘paygan. Bu davrda

aholi soni o'sishining eng quyi ko'rsatkichi Vodnik shaharchasida (128,3%) kuzatildi. Boshqa shaharchalarning barchasida ushbu jarayon o'rtacha holatda bo'lgan.

Ta'kidlab o'tilganidek, Qoraqalpog'iston aholisining deyarli yarmi shaharlarda yashaydi. Ulardan eng yirigi Nukus shahridir (311,1 ming kishi). U mamlakatimizning yirik shaharlari ichida aholi soni tez sur'atda o'sib borayotgan shaharlari safiga kiradi. Bunga shahar aholisining o'sishiga yaqin joylashgan shaharcha (Qizketken, Pristin) va qishloqlarning qo'shilib ketishi "aglomeratsiyalashish" jarayoni sabab bo'lmoqda. Shaharlarning geografik joylashgan o'rniga aloqador u janub va janubi-g'arb, ya'ni Amudaryo tomonga kundan-kunga kengayib bormoqda. Bundan xulosa chiqarish mumkinki, Nukus kelajakda Xo'jayli, Taxiatosh shaharlari, Vodnik shaharchasi hamda bir nechta aholi yashovchi punktlari bilan qo'shilib, salkam yarim million kishilik shahar aglomeratsiyasini yuzaga keltirishi mumkin. Ekologik holatning keskinligi qishloq xo'jaligini yurgizishni qiyinlashtiradi va shahar qishloq o'rtasidagi o'zaro migratsiya soldosining shaharlar foydasiga yechilishida o'z aksini topishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida 07.02.2017 yildagi PF-4947-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 28.01.2022 yildagi PF-60-son
3. Xodjaeva G.A., Dauletbayeva D.D., Xudaybergenov N.S., Bayramova M. Aholi sifatini rivojlantirishida mintaqaviy milliy siyosatning ahamiyati Markaziy Osiyo davlatlari olima ayollarining ilim-fan sohasiga qo'shgan hissasi xalqaro ilmiy – amaliy anjuman materiallari (1-qism) 2020-jil 20-mart 106-108).
4. Ходжаева Г.А., Даулетбаева Д.Д., Байрамова М. Проблемы формирования городских поселений республики Каракалпакстан Бердак атындағы каракалпак мәмлекетлик университетиниң Хабаршысы 2020- жыл 1-саны 35-38- бетлер
5. Ходжаева Г.А., Даулетбаева Д.Д., Байрамова М. Шукриллаев Х.Х. Формирование и развитие городов, современные урбанистические процессы Каракалпакстана "Ўзбекистонда Геоурбанистиканинг замонавий муаммолари" мавзусидаги илмий амалий семинар материаллари Тошкент 2021 йил 10 март 138 147 бетлар
6. <https://qrstat.uz>